



UDK:94(575.1)"13/15":364

Baxromjon XAYNAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: beshkurgan@gmail.com,
Parviz QUDRATILLAYEV
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

DSc, prof. D.Urakov taqrizi asosida

HISTORY OF THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN THE ERA OF THE TEMURIDS

Annotation

This article analyzes the essence of social policy pursued during the reign of Amir Temur and the Timurids. The author highlights the role of the "Temur regulations" in ensuring the social stability of the state, the system of support for the underprivileged, the role of endowment properties, and the attention paid to health care and education. The study substantiates that the mechanisms of social protection during the Timurid era were built not only on material assistance, but also on the principles of fair governance.

Key words: Amir Temur, Temurid Renaissance, social protection, Temur regulations, endowment, justice, social policy.

ИСТОРИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В ЭПОХУ ТЕМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье анализируется сущность социальной политики, проводившейся во время правления Амира Тимура и Тимуридов. Автор подчеркивает роль «постановлений Тимура» в обеспечении социальной стабильности государства, систему поддержки малоимущих, роль ваучерной собственности, а также внимание, уделяемое здравоохранению и образованию. Исследование доказывает, что механизмы социальной защиты в эпоху Тимуридов строились не только на материальной помощи, но и на принципах справедливого управления.

Ключевые слова: Амир Тимур, Тимуридское возрождение, социальная защита, законы Тимура, ваучеры, правосудие, социальная политика.

TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOYIY HIMOYA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar saltanatida yuritilgan ijtimoiy siyosatning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Muallif davlatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda "Temur tuzuklari"ning o'rni, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, vaqf mulklarining roli hamda sog'liqni saqlash va ta'limga qaratilgan e'tiborni yoritib beradi. Tadqiqot davomida Temuriylar davridagi ijtimoiy himoya mexanizmlari nafaqat moddiy yordam, balki adolatli boshqaruv tamoyillari asosiga qurilganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar renessansi, ijtimoiy himoya, Temur tuzuklari, vaqf, adolat, ijtimoiy siyosat.

Kirish. O'rta asrlar Sharq davlatchiligi tarixida Amir Temur va Temuriylar saltanati o'zining mukammal boshqaruv tizimi va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan alohida o'rin egallaydi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahrda shakllangan siyosiy va ijtimoiy muhit nafaqat ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga, balki aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilgan tizimli islohotlarga ham zamin yaratdi. Sohibqiron Amir Temur "Kuch — adolatdadir" shiorini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgiladi va bu g'oya saltanatning ijtimoiy-huquqiy asosini tashkil etdi.

Temuriylar davri ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xosligi shundaki, u tizimli va qonuniy xarakterga ega bo'lgan. "Temur tuzuklari"da davlat zimmasiga aholining turli qatlamlari — yetim-yesirlar, nogironlar, ehtiyojmand oilalar va ilm bilan band bo'lgan toifalarni moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklatilgan. Bu davrda ijtimoiy himoya nafaqat hukmdorning saxovati, balki davlat boshqaruvining ajralmas bo'lagi sifatida namoyon bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy himoya masalalari uzoq yillardan buyon tarixchi olimlar, huquqshunoslar va sharqshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu mavzuni o'rganishda adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Birlamchi tarixiy manbalar. Mavzuning poydevori bevosita Temuriylar davrida yozilgan asarlardir. Birinchi navbatda, "Temur tuzuklari" asari davlatning ijtimoiy qonunchiligini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi. Unda kambag'allarga yordam berish, yetimlarni parvarishlash va shahar-qishloqlarni obod qilishning huquqiy asoslari bayon etilgan. Shuningdek, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" va Ibn Arabshohning "Ajoyib al-ma'qdur" asarlarida Amir Temurning ijtimoiy qurilishlar, xayriya ishlari va aholi bilan muloqoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

2. O'rta asrlarga oid ijtimoiy-falsafiy asarlari. Temuriylar davri jamiyatining ijtimoiy manzarasi Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" hamda Xondamirning "Habib us-siyar" asarlarida keng tahlil qilingan. Ayniqsa, Navoiyning "Vaqfiya" asari o'sha davrdagi ijtimoiy himoya institutlari — madrasalar, shifoxonalar va xonaqohlarning iqtisodiy ta'minoti hamda ularning jamiyat hayotidagi roli haqida fundamental ma'lumot beradi.

3. Zamonaviy tadqiqotlar. Zamonaviy tarixshunoslikda Temuriylar davri ijtimoiy siyosati bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan:

B. Ahmedov o'zining ilmiy izlanishlarida Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi va ijtimoiy tabaqalanish masalalariga to'xtalib o'tgan.

H. Bobobekov va A. Sagdullayev kabi olimlar Temuriylar davlatidagi adolatli boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikning o'zaro bog'liqligini tahlil qilganlar.

Xorijiy sharqshunoslardan Hilda Hookham va Beatrice Forbes Manz kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishdagi ijtimoiy strategiyasini o'rganganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni yoritishda tarixiylik va mantiqiylik metodi asosiy o'rin tutadi, bu esa hodisalarni davning siyosiy sharoitidan kelib chiqib tahlil qilish imkonini berdi. Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi orqali Temuriylar tomonidan joriy etilgan ijtimoiy yordam turlari o'sha davrdagi boshqa Sharq davlatlari siyosati bilan solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida ijtimoiy himoya yaxlit bir mexanizm sifatida — uning huquqiy asosi, iqtisodiy manbalari (vaqf) va ijrochi muassasalari (shifoxona va rabotlar) o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Shuningdek, manbashunoslik tahlili yordamida tarixiy qo'lyozmalardagi ijtimoiy normalar va atamalar interpretatsiya qilindi. Ushbu metodologik majmua mavzuni nafaqat tavsifiy, balki chuqur tahliliy jihatdan ochib berishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Temuriylar davridagi ijtimoiy himoya tizimini tadqiq etish jarayonida ma'lum bo'ladiki, ushbu soha nafaqat axloqiy va diniy majburiyat, balki davlat boshqaruvining strategik yo'nalishi sifatida shakllangan. Amir Temurning davlat boshqaruvi falsafasi xalqning farovonligini ta'minlash orqali saltanat qudratini mustahkamlashga qaratilgan edi. Bu jarayonda "Temur tuzuklari" asosiy huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilib, unda jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand toifalar uchun aniq imtiyozlar belgilangan.

Amir Temurning yetimlar va beva-bechoralar, ya'ni "yetim-yesirlar"ga nisbatan yuritgan siyosati uning nafaqat buyuk sarkarda, balki adolatli va insonparvar davlat arbobi bo'lganligidan dalolat beradi. Sohibqiron o'zining "Temur tuzuklari" asarida saltanat ustunlarini adolat va raiyatparvarlik bilan mustahkamlaganini ta'kidlab, jamiyatning eng himoyasiz qatlamlarini davlat panohiga olishni boshqaruvning ustuvor vazifasi deb bilgan. Uning buyrug'iga binoan, saltanatning har bir go'shasida maxsus ro'yxatlar shakllantirilib, beva va yetimlar uchun davlat xazinasida hamda vaqf mulklari hisobidan doimiy nafaqalar (vazifalar) tayinlangan. Bu tizim o'sha davr uchun noyob bo'lib, yetim qolgan bolalarning nafaqat moddiy ta'minoti, balki ularning ta'lim va tarbiyasi bilan ham davlat shug'ullangan; iste'dodli yetimlar madrasalarda o'qitilib, kelajakda davlat xizmatiga tayyorlangan. Temur fath etgan shaharlarida birinchi navbatda "Dorul-masokin" (Miskinlar uyi) va xonaqohlar qurdirib, u yerda boshpanasiz qolganlarga bepul oziq-ovqat va kiyim-kechak ulashishni an'anaga aylantirgan. Shuningdek, u yetim-yesirlarning huquqiy himoyasini qat'iy nazorat qilgan: har qanday amaldor yoki qudratli tabaqa vakili tomonidan yetimning haqiga xiyonat qilinishi yoki uning merosini o'zlashtirilishi og'ir jinoyat sanalgan va qattiq jazolangan. Sohibqironning bu kabi xayriya ishlari va ijtimoiy islohotlari saltanatda ichki osoyishtalikni ta'minlash bilan birga, xalqning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlagan va uni tarixda mazlumlar hamda muhojrlarning chinakam homiysi sifatida muhrlagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Temuriylar saltanatida ijtimoiy himoya mexanizmi bir necha bosqichli tuzilishga ega bo'lgan[1]. Birinchi navbatda, ijtimoiy muvozanatni saqlash maqsadida aholini ish bilan ta'minlash va ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishiga ko'maklashish tizimi yo'lga qo'yilgan. Masalan, dehqonlarga bo'sh yotgan yerlarni

o'zlashtirish uchun urug'lik va ish qurollari berilishi, hunarmandlarga esa xomashyo yetkazib berilishi ijtimoiy himoyaning faol shakli ekanligini isbotlaydi. Bu orqali davlat aholini boqimandachilikdan saqlab, o'zini o'zi boqish imkoniyatini yaratgan[2. 66].

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaning asosi sifatida vaqf mulklaridan foydalanish amaliyoti keng tadbiiq etilgan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Temuriylar davrida barpo etilgan madrasalar, dorushshifolar (shifoxonalar) va xonaqohlar asosan vaqf yerlari va mulklari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu esa ijtimoiy muassasalarning davlat xazinasiga qaramligini kamaytirib, ularning uzluksiz va bepul xizmat ko'rsatishini ta'minlagan[3]. Alisher Navoiy kabi davlat arboblarning faoliyati davrida ijtimoiy yordam ko'lamini yanada kengayib, muhojrlarga har kuni issiq ovqat tarqatiladigan maxsus xayriya uylari tashkil etilganligi o'sha davr ijtimoiy siyosatining yuksak insonparvarlik darajasini ko'rsatadi. Tibbiy xizmat sohasidagi tahlillar esa dorushshifolarda nafaqat davolash, balki dori-darmonlar bilan bepul ta'minlash tizimi ham mavjud bo'lganligini, tabiblarning maoshi esa to'g'ridan-to'g'ri vaqf yoki davlat hisobidan to'langanligini ochib beradi[4].

Soliq siyosatidagi tahlillar esa ijtimoiy adolatning iqtisodiy asoslarini yaqqol ko'rsatadi. Temuriylar davlatida tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda holatlar tufayli zarar ko'rgan aholiga nisbatan "soliq ta'tili" yoki soliqlarni butunlay kechib yuborish amaliyoti ko'llanilgan. Bu o'z navbatida aholining iqtisodiy inqirozga tushib qolishining oldini oluvchi muhim himoya chorasi bo'lgan. Shuningdek, savdo yo'llarida bunyod etilgan rabot va karvonsaroylar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy vazifani ham bajargan bo'lib, yo'lovchi va musofirlar uchun uch kungacha bepul boshpana va oziq-ovqat berish tartibi joriy etilgan[5. 33]. Temuriylar davridagi ijtimoiy himoya tizimi o'zining tizimligi, qonuniy asoslanganligi va jamiyatning barcha ehtiyojmand qatlamlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizimning muvaffaqiyati davlat resurslari bilan jamoat xayriyasini oqilona birlashtirilganida namoyon bo'ladi va bu tajriba o'rta asrlar Sharq renessansining barqaror ijtimoiy poydevori bo'lib xizmat qilgan[6].

Xulosa va takliflar. Temuriylar davridagi ijtimoiy himoya tizimini tadqiq etish jarayonida ma'lum bo'ladiki, ushbu davr ijtimoiy siyosati o'zining ko'lamini va mazmuni jihatidan o'rta asrlar Sharq davlatchiligining eng yuqori bosqichini tashkil etgan[7]. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Amir Temur va uning vorislari tomonidan yuritilgan siyosat nafaqat hukmdorning shaxsiy saxovatiga, balki mustahkam huquqiy va iqtisodiy poydevorga tayangan. "Temur tuzuklari"da belgilangan insonparvarlik normalari davlatni aholi farovonligi uchun mas'ul bo'lgan oliy organga aylantirdi[8]. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, Temuriylar davlatida ijtimoiy himoya faqat moddiy yordam ko'rsatish bilan cheklanib qolmasdan, kambag'allikni bartaraf etish uchun aholini mehnat qurollari va yer bilan ta'minlash kabi faol usullardan ham keng foydalanilgan.

Vaqf va davlat xazinasida o'rtasidagi muvozanatli hamkorlik sog'liqlik saqlash va ta'lim tizimining bepulligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Dorushshifolar, madrasalar va karvonsaroylar tarmog'ining kengayishi jamiyatda ijtimoiy xavfsizlik va barqarorlik hissini shakllantirdi. Shuningdek, soliq tizimidagi imtiyozlar va aholini kutilmagan iqtisodiy inqirozlardan himoya qilish mexanizmlari davlat va xalq o'rtasidagi ishonchni mustahkamladi. Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ijtimoiy himoya o'zining adolatli taqsimot tamoyillari va institutsional tuzilishi bilan ajralib turadi[9. 106]. Ushbu tarixiy tajriba inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo'yish, muhoj qatlamlarni tizimli qo'llab-quvvatlash va

ijtimoiy muassasalarni barqaror moliyalashtirish borasida bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega. Temuriylar saltanatining uzoq vaqt qudratli davlat sifatida mavjud

bo'lishida aynan mana shu mukammal ijtimoiy himoya tizimi ma'naviy va siyosiy ustun bo'lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
3. Azamat Ziyo. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000. – B. 72.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1996.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
7. Ulug'bek M. Zij-i jadidi Ko'ragoniy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1994.
8. Keren L. Amir Temur saltanati. (Fransuz tilidan tarjima). – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 1999.
9. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2015.